




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

9 (71) 2024

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV(Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

9 (71)

2024

сентябрь

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.08.2024, Accepted: 02.09.2024, Published: 10.09.2024

УДК 616.3112(616.155.194)

HOMILADOR AYOLLARDA GESTATSIYA DAVRINING STOMATOLOGIK KASALLIKLAR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Vohidov E.R. Email: VohidovE@mail.ru

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro, st. A. Navoiy. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Resume*

Homilador ayollar stomatologik kasalliklar yuzaga kelish xavfi eng yuqori bo'lgan toifaga kiradi. Bir qator mualliflarning fikricha, homiladorlik fiziologik kechganida tishlar kariyesining tarqalganligi 91,4% ni tashkil etadi, parodont to'qimalarining kasalliklari 90% holatda uchraydi, karioz jarayon asosan keskin kechadigan oldin intakt bo'lgan tishlarning shikastlanishi - 38% homilador ayollarda kuzatiladi.

Kalit so'zlar: yallig'lanish holatlari, homiladorlik, stomatologik kasalliklar, kariyes, gestatsiya davri.

ВЛИЯНИЕ СРОКА ГЕСТАЦИИ НА РАЗВИТИЕ СТОМАТОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У БЕРЕМЕННЫХ

Вохидов Э.Р. Email: VohidovE@mail.ru

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан, г. Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Резюме*

Беременные женщины подвергаются наибольшему риску развития стоматологических заболеваний. По данным ряда авторов, распространенность кариеса зубов при физиологической беременности составляет 91,4%, заболевания тканей пародонта встречаются в 90% случаев, поражение интактных до кариозного процесса зубов преимущественно тяжелое - у беременных наблюдается в 38% случаев.

Ключевые слова: воспалительные состояния, беременность, стоматологические заболевания, кариес, период беременности.

THE INFLUENCE OF GESTATIONAL AGE ON THE DEVELOPMENT OF DENTAL DISEASES IN PREGNANT WOMEN

Vokhidov E.R. Email: VohidovE@mail.ru

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoiy. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Resume*

Pregnant women are at greatest risk of developing dental disease. According to a number of authors, the prevalence of dental caries during physiological pregnancy is 91.4%, periodontal tissue diseases occur in 90% of cases, damage to teeth intact before the carious process is predominantly severe - in pregnant women it is observed in 38% of cases.

Key words: inflammatory conditions, pregnancy, dental diseases, caries, pregnancy.

Dolzarbligi

A ksariyat yirik epidemiologik tadqiqotlarda og'iz bo'shlig'ida infektsiyali - yallig'lanish kasalliklari – bu tishlarning karioz shikastlanishi, surunkali umumiy parodontit yurak-tomir tizimi kasalliklari rivojlanishida xavf ortishi, qandli diabet, semizlik, yuqori nafas olish yo'llarining respirator shifoxona ichki infektsiyalari, gestatsiya davrining turli asoratlari hamda tug'uruq faoliyatida salbiy yakunlar bilan bog'liqligi aniqlangan [6, 8].

Xususan, ayollarda homiladorlik davrida parodontal to'qimalarning infeksiyali-yallig'lanish shikastlanishlari mavjud bo'lganida homilaning rivojlanishdan to'xtash sindromi, tug'uruqning erta muddatlari, kichik vaznli go'daklar tug'ilishi, preeklampsiya shakllanishi, onalar letal holatlarining ortishi xavfi ko'payadi. Shu bilan birga, ko'plab olimlar parodontal to'qimalarda yallig'lanish-destruktiv kasalliklar rivojlanishida gestatsiya davri asoratlarining xavfi kam ekanligini isbotlashdi [2,6,8,].

Parodontal to'qima kasalliklari va homiladorlik hamda tug'uruq oqibatlarini o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv munozara va bahslarga sabab bo'lganligi tufayli, biz muhim tadqiqotlarning bahosini kuzatuv va o'rganishlar orqali aniqlashga qaror qildik, ushbu tadqiqotlar mazkur mavzuni batafsil o'rganish uchun ko'plab mamlakatlardan turli dunyo olimlari tomonidan bajarilgan [1,3,4,5,7].

Tadqiqot maqsadi: Homilador ayollarda gestatsiya davrining stomatologik kasalliklar rivojlanishiga ta'sirini o'rganish.

Material va usullar

Dastlabki bosqichda Samarqand viloyati misolida 2017-2022-yillar davrida homilador ayollarda parodont to'qimalari yallig'lanish kasalliklari va tishlar kariyesi tarqalganligi va rivojlanganligining tahlili o'tkazildi. Viloyat stomatologik poliklinikasida bo'lgan umumiy 500 ta stomatologik bemorlarning tibbiyot kartalari (f. №043/y) va 2-son tug'uruqxonasi ayollar maslahat xonasida bo'lgan homilador ayollarning almashuv kartasi o'rganib chiqildi.

Natija va tahlillar

Tadqiqotimizning ikkinchi bosqichida homilador ayollar orasida ikkita klinik guruh shakllantirildi: 1-guruh – tishlar kariyesi mavjud bo'lgan 65 nafar bemor va 2-guruh – yengil va o'rta og'irlik darajasidagi surunkali umumiy parodontiti (SUP) mavjud bo'lgan 45 nafar bemor. Ayollar orasida bir qator savollarni o'z ichiga olgan anketani qo'llash orqali ijtimoiy so'rovnoma to'ldirildi: homilador ayollarning ijtimoiy-gigiyenik tavsifi (yoshi, homiladorlik muddati, ta'lim darajasi, ijtimoiy holati, oilaviy holati); akusher-ginekolog maslahatchisi tomonidan – akusherlik statusi va ekstragenital patologiya – homiladorlikning muvofiqligi, tug'uruqlar xarakteri, homiladorlikning asoratlari, ekstragenital patologiyalar; homilador ayollarning tibbiy nuqtai nazardan faolligi – shifokorlar, shu jumladan stomatologlarga tashriflar chastotasi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichi homilador ayollarning stomatologik profilaktikasini biz takomillashtirgan dasturini sinashni o'z ichiga oldi.

Ko'p bosqichli tadqiqot vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi guruhlar aniqlandi:

1. Epidemiologik – statistika materiallarini o'rganish yo'li bilan stomatologik kasalliklarning tarqalganligini tahlil qilish uchun 200 nafar homilador ayollar;

2. 2 klinik guruhlar – 1-guruhda (n=55) tishlar kariyesi mavjud bemorlar va 2-guruhda (n=40) parodontda yallig'lanish kasalliklari mavjud bemorlar – stomatologik kasalliklar kechuvi va oqibatlarining patogenetik printsiplarini o'rganish uchun. Homilador ayollar gestatsiya davri jarayonida o'rganildi;

3. Dispanser guruhi (n=75) – homilador ayollar uchun tavsiya etilgan profilaktika dasturi natijalarini aniqlash uchun.

Epidemiologik guruh tibbiy hujjatlarni o'rganishda tanlab olish yo'li bilan tuzildi.

Bemorlarni umumiy klinik guruhlariga qabul qilish shartlari quyidagilar bo'ldi:

1. Ayolning homilador bo'lishi;
2. Homilador ayolning 1-trimestrda ayollar maslahatiga tashrifi (homiladorlikning 8-12 haftasi);
3. Homilador ayollarning 1-trimestrda ginekolog yo'llanmasi bo'yicha stomatologga tashrifi (homiladorlikning 8-12 haftasi);
4. 1-guruhga kiritishda tishlar kariyesining mavjud bo'lishi, 2-guruhga kiritishda yengil va o'rta og'irlik darajasida milk yallig'lanishi va/yoki SUP bo'lishi;
5. 2 (13-27 hafta) va 3 (28-40 hafta) trimestrlarda stomatolog xonasiga tashrif buyurish bo'yicha ixtiyoriy axborot rozilik.

Bemorlarni klinik guruhlardan chiqarib tashlash mezonlari quyidagilar bo'ldi:

1. dekompensatsiya bosqichida somatik kasallik mavjudligi;
2. homiladorlikning 2 va 3-trimestrlarida stasionar davolashni talab qiluvchi va stomatolog xonasiga tashrifni qiyinlashtiruvchi, dekompensatsiya bosqichidagi gestatsiya asoratlari yuzaga kelishi;
3. O'tkir yoki avj olgan surunkali infeksiyali kasalliklar (shu jumladan OITS, B va C gepatitlar, zaxm); autoimmun kasalliklar; o'tkir allergiya reaksiyalari; onkologik kasalliklar; kortikosteroidlar bilan uzoq muddatli gormonal terapiya; ruhiy kasalliklar mavjudligi.

Dispanser guruhga qabil qilish shartlari:

1. ayolning homilador bo'lishi;
2. homilador ayolning 1-trimestrda (homiladorlikning 8-12 haftasi) ginekolog xonasiga tashrifi;
3. homilador ayolning ginekolog yo'llanmasiga ko'ra 1-trimestrda (homiladorlikning 8-12 haftasi) stomatolog xonasiga tashrifi;
4. tishlarda karioz jarayon, yengil va o'rta og'irlik darajasida tishlar yallig'lanishi va/yoki surunkali umumiy parodontit mavjudligi;

5. 2 (13-27 hafta) va 3 (28-40 hafta) trimestrlarda stomatolog xonasiga ixtiyoriy tashrifga xabar rozilik;

6. maxsus gigiyena va davolash stomatologik amaliyotlarni bajarishga katta ishonch va qaror.

Dispanser guruhdan chiqarib tashlash mezonlari klinik guruhlardan istisno qilish shartlariga o'xshash bo'ldi. Klinik va dispanser guruhlaridagi barcha bemorlardan ularni tadqiqot o'tkazishning maqsadi va qoidalariga muvofiq klinik tadqiqotga jalb qilish bo'yicha yozma axborot roziligi olindi.

Biz ayollarning 18-25, 26-28, 29-32, 33-35, 36-40 yosh toifalarini o'rgandik. Ularni ajratishning asosiy sababi bir qator mualliflar tomonidan homilador ayollarda organizmning tuzilishida muhim ko'rsatkichlarni o'rganish bo'ldi, ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra ayollarning 18-24, 25-28, 29-31, 32-36, 37-40, 41 yoshdan katta yosh ketma-ketligi homiladorlik davrida individual rivojlanish va perinatal yakunlar to'g'risida zarur ma'lumotlarni olish uchun tavsiya qilingan. Homilador bemorlar va 1-klinik guruh o'rtasida epidemiologik toifalarda eng ko'p uchraydigan yosh 26 dan 28 yoshgacha bo'ldi, 2-klinik guruhda – 33 yoshdan 35 yoshgacha va dispanser guruhda – 29 yoshdan 32 yoshgacha.

Epidemiologik guruhda homilador ayollarning o'rtacha yoshi $26,5 \pm 1,5$ yoshni, 1-klinik guruhda - $23,1 \pm 1,5$ yoshni, 2-klinik guruhda - $31 \pm 1,5$ yoshni va dispanser guruhda - $30,1 \pm 1,5$ yoshni tashkil etdi. Guruhlar o'rtasida yosh bo'yicha ehtimoliy farqlar kuzatilmadi.

Ayollarni stomatologik o'rganish darajasi ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida davolash-profilaktik yordamni tashkil etish sifati darajasiga bog'liq, u mos ravishda bemorlarning shahar yoki qishloq joylarda yashashi bilan belgilanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, parodontda yallig'lanishi mavjud bo'lgan homilador bemorlarga nisbatan profilaktika, davolash va reabilitatsiya choralari homiladorlikning 3-trimestrida parodontal status yaxshilanishini chaqiradi.

Yakunda ta'kidlash mumkinki, biz shifokor-stomatolog tekshiruvida homilador ayollarning stomatologik statusini monitoring qilish algoritmi hamda turli stomatologik statusda homiladorlik dinamikasida homilador bemorlarni olib borishning differentsial taktikasini ishlab chiqdik. Tishlarning karioz shikastlanishi hamda parodontning yallig'lanish kasalliklari mavjud bo'lgan homilador bemorlar dinamik kuzatuv uchun dispanser guruhni tashkil etdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алешина Г.М. Современная концепция об противомикробных пептидах как молекулярных факторах иммунитета / Г.М. Алешина, О.В. Кокряков, Д.С. Шамова, В.Н. Орлов // Медицинский академический журнал. 2010;4:149-160.
2. Арсеенкова О.Ю. Медико-социальные аспекты оптимизации профилактики осложнений беременности по фактору стоматологическое здоровье: /автореф. дис. ... канд.мед.наук. - М., 2012; 24 с.
3. Арсеенкова О.Ю. Медико-социально-психологический потенциал беременных как потребителей медицинских услуг стоматологического профиля / О.Ю. Арсеенкова, Т.П. Васильева, А.С. Чумаков, А.Д. Курицын, В.М. Куксенко, Т.А. Истратова, Е.Г. Алексеева // Бюллетень ННИИ общественного здоровья. 2010;2:16-20.
4. Бахмудов Б.Р. Динамика поражаемости кариесом у беременных и оценка уровня стоматологической помощи / Б.Р. Бахмудов, М.Б. Бахмудов, З.Б. Алиева // Российский стоматологический журнал. 2009;3:27-29.
5. Бахмудов Б.Р. Опыт организации санации полости рта у беременных женщин и пути ее совершенствования / Б.Р. Бахмудов, М.Б. Бахмудов, З.Б. Алиева // Стоматология. 2009;4:4-8.
6. Бахмудов Б.Р. Структурная характеристика интенсивности кариеса зубов и исходный уровень стоматологической помощи у беременных женщин по данным 4-летнего наблюдения / Б.Р. Бахмудов, М.Б. Бахмудов, З.Б. Алиева // Клиническая стоматология. 2008;2:82-86.
7. Денъга О.В., Ковальчук В.В., Иванов В.С. (2014). Эффективность профилактики основных стоматологических заболеваний у детей дошкольного возраста в сельскохозяйственном регионе. // Вестник стоматологии, 2014;4(89):63-67.
8. Исмагилов О. Р., Шулаев А. В., Старцева Е.А., Ахметова Г. М. (2019). Стоматологическая заболеваемость детей школьного возраста. // Проблемы стоматологии, 2019;15(4):140-148.

Qabul qilingan sana 20.08.2024